

FE'L KOMPOONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TAHLILI

Mannatova Sevinch Davlat qizi

Markaziy Osiyo xalqlari tillari

va madaniyati insituti talabasi

sevinchmannatova@gmail.com

+998-77-495-04-22

Yunusova Bahora Axmatjonovna

Ilmiy rahbar: falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada fe'l asosida shakllangan frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari, semantik tuzilishi va nutqdagi funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida fe'l komponentli frazeologizmlarning paydo bo'lish omillari, ularning ko'chma ma'no hosil qilishdagi o'rni hamda leksik-grammatik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, bunday frazeologik birliklarning badiiy va og'zaki nutqda qo'llanishi, ularning ekspressivlik va obrazlilikni ta'minlashdagi roli misollar asosida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, fe'l asosidagi frazeologizm, lingvistik xususiyat, semantik tuzilish, ko'chma ma'no, barqaror birikma, obrazlilik, ekspressivlik, uslubiy vosita,

АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ГЛАГОЛЬНЫМИ КОМПОНЕНТАМИ

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические свойства, семантическая структура и функциональное значение фразеологических единиц, образованных на основе глаголов. В ходе исследования освещаются факторы возникновения фразеологических единиц с глагольной составляющей, их роль в формировании переносимого значения, а также их лексико-грамматические свойства. Также на примерах показано использование таких фразеологических единиц в художественной и устной речи, их роль в обеспечении выразительности и образности.

Ключевые слова: фразеологическая единица, глагольно-основанный фразеологизм, лингвистическая особенность, семантическая структура, переносимое значение, устойчивое сочетание, образность, выразительность, стилистический приём.

ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH VERB COMPONENTS

Abstract. *This article analyzes the linguistic properties, semantic structure and functional significance of phraseological units formed on the basis of verbs. In the course of the research, the factors of the emergence of phraseological units with a verb component, their role in the formation of a portable meaning, and their lexical and grammatical properties are highlighted. Also, the use of such phraseological units in artistic and oral speech, their role in ensuring expressiveness and imagery are shown on the basis of examples.*

Key words: phraseological unit, verb-based phraseologism, linguistic feature, semantic structure, portable meaning, stable combination, imagery, expressiveness, stylistic device.

KIRISH. Frazeologiya tilshunoslikning eng murakkab va ayni paytda eng qiziqarli sohalaridan biri bo‘lib, tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini belgilovchi frazeologik birliklarni (FB) o‘rganadi. Frazeologik birliklar tilning lug‘at tarkibida alohida o‘rin tutadi, chunki ular erkin so‘z birikmalaridan farqli o‘laroq, barqarorlik, yaxlit ma‘no va ko‘pincha idiomatiklik xususiyatiga ega. Ularning struktur-semantik tabiati tilning ichki mexanizmlarini, ma‘no hosil qilish prinsiplarini va madaniy-milliy xususiyatlarini chuqur tushunish uchun kalit hisoblanadi. Frazeologik birliklar nafaqat tilning leksik qatlamini boyitadi, balki nutqqa obrazlilik, ta‘sirchanlik va emotsionallik bag‘ishlaydi, shu bilan birga, milliy mentalitet va dunyoqarashni aks ettiradi. Ularni o‘rganish tilning dinamik rivojlanishini, uning o‘zgaruvchanligini va yangi ma‘no qatlamlarining paydo bo‘lishini tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, frazeologik birliklar tilning pragmatik salohiyatini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular nutqiy vaziyatga qarab turli xil kommunikativ funksiyalarni bajarishi mumkin. Bu esa ularning nafaqat lingvistik, balki madaniy va sotsiolingvistik ahamiyatini ham ko‘rsatadi. Fe‘l asosidagi frazeologik birliklar — tarkibida fe‘l yetakchi unsur bo‘lib kelgan frazeologik birliklardir. Bu birliklarda fe‘l harakat yoki holatni ko‘chma ma‘noda ifodalab, frazeologik butunlik hosil qiladi. Fe‘l asosidagi frazeologik birliklar o‘zining semantik yaxlitligi, turg‘unligi va ko‘chma ma‘noga egaligi bilan oddiy so‘z birikmalaridan farqlanadi.¹ Fe‘l asosidagi frazeologik birliklar tarkibida asosiy semantik yukni fe‘l bajaradi. Ushbu birliklar quyidagi lingvistik xususiyatlarga ega:²

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

- ✓ Strukturaviy xususiyatlar fe‘l asosidagi frazeologizmlar odatda quyidagi modellar asosida shakllanadi:

¹ Алефиренко Н.Ф. Фразеология и когнитивистика в аспекте лингвистического постмодернизма. Монография. – Белгород, 2008. 152 с.

² Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеология масалалари. – Тошкент, 2004.

♦ **Ot + fe'l**: “*Chiqo ‘vur, shu yerda bo ‘laman! – Po ‘lat barzangini do ‘q-u po ‘pisasiga pinagini ham buzmadi.*”³ - *pinag(i)ni buzmaslik kim? [o ‘zining] o ‘ziga qaratilgan gap yoki harakatga bila-ko ‘ra turib e ‘tibor qilmaslik o ‘zini go ‘yo hech narsa sezmagandek tutmoq.* Varianti: pinak.

♦ **Sifat + fe'l**: “*Po ‘lat Ukraina tuproqlariga kelib tushgan kundan uch kun o ‘tmay ana shu balandparvoz gaplarning mag ‘zi puch ekani haqida ilk bor o ‘ylay boshladi.*”⁴ - aytilayotgan gaplarda mazmun yo ‘qligi, fikr sayoz, isbotsiz yoki ahamiyatsiz ekanini bildiradi.

♦ **Ravish + fe'l**: “*Kechagina yorining asaldek quchog ‘ida visol lazzatidan totib, hayotning eng shirin damlari bag ‘rida erkalangan bo ‘lsa, bugun boshining yon-veridan vizillab uchayotgan o ‘qlaru oyoqlari ostida gumburlab portlayotgan snaryadlar qiyofasida o ‘lim bilan yuzma-yuz kelib turardi.*” - juda katta xavf ostida qolish, hayot uchun jiddiy tahdid bilan to ‘qnash kelish demakdir.

Bu birliklarda komponentlarning o ‘rni qat ‘iy bo ‘lib, ularni almashtirish yoki o ‘zgartirish frazeologik ma ‘noni buzadi.

- ✓ Grammatik xususiyatlari fe ‘l asosidagi frazeologik birliklar: zamon, shaxs, nisbat shakllarida o ‘zgaradi, gapda kesim vazifasida faol ishtirok etadi:

“*Kurrai zaminda inson oyog ‘i yetmagan joy qolmagan, hatto erta-indin oyga uchaman, deb turgan, irim-sirim-u xurofotning o ‘rnini ilmu fan, tibbiyot egallagan bir davrda odamlar bu sehgarga netib bunchalar ixlos qo ‘ydi ekan?*” kabi, sintaktik jihatdan erkin emas, balki barqaror birlik sifatida ishlatiladi.

Fe ‘l asosida shakllangan frazeologik birliklarning semantik tuzilishida frazeologik birliklarning asosiy xususiyati — ko ‘chma (metaforik) ma ‘noga egaligidir.

- ✓ Semantik yaxlitlik, fe ‘l asosidagi frazeologizmlarda:

umumiy ma ‘no komponentlar yig ‘indisidan kelib chiqmaydi, ma ‘no yaxlit holda anglashiladi. Masalan: “*Qarabsizki, ish xamirdan qil sug ‘urgandek oson ko ‘chdi – pishmay yotgan osh pishdi.*” - xamirdan qil sug ‘irganday- oson. “*Har galgidek, butun oilani bir o ‘zi «gah deya qo ‘liga qo ‘ndirgan», «o ‘ziga xon, ko ‘lankasi maydon» Oychechak opa, yoniga erini, o ‘n besh yildan beri tirnoqqa zor o ‘g ‘li Po ‘latu husnda tengsiz go ‘zal kelini Yog ‘duni olib, qanisan Toshkent-boshkent dediyu, yo ‘lga tushdi.*”⁵ - “tirnoqqa zor” -farzandsiz, “gah desa qo ‘liga qo ‘ndiradigan” - juda itoatkor qilib olmoq.⁶

- ✓ Semantik guruhlanishlari mazmuniga ko ‘ra quyidagi guruhlarga bo ‘linadi:⁷

³ Улуғбек Ҳамдам. Ота. – Тошкент: “ Ёшлар матбуоти”, 2022, 208-б.

⁴ Улуғбек Ҳамдам. Ота. – Тошкент: “ Ёшлар матбуоти”, 2022, 208-б.

⁵ Улуғбек Ҳамдам. Ота. – Тошкент: “ Ёшлар матбуоти”, 2022, 208-б.

⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: Университет, 1992.

- ◆harakat-holatni bildiruvchi: “*Oti o‘chgur urush Po‘latning etagidan tutdi.*”- etagidan tutdi- uni ham olib ketdi,o‘z girdobiga tortdi.
- ◆ruhiy holatni ifodalovchi: “*O‘shandan beri Po‘lat uyda, yurak yutib ko‘chaga chiqmaydi. O‘shandan beri ichiga chiroq yoqsang, yorishmaydi.*”- yurak yutib-qo‘rquvni yengib, qat‘y qarorga kelish,
- ◆baholovchi birliklar: “*Po‘lat cho‘chib tushdi, darhol televizor qulog‘ini burab, uning yoqimsiz ovozini boyagidek qildi.*”- cho‘chib tushdi- qo‘rqdi.
- ◆ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi: “*Nima? Toshiyni ter, harip! – O‘rnidan turdi barzangi. – Manga aql o‘rgatvossanmi, vey!*”- tosh(ing)ni ter (...) kim? [o‘zining] boshqaning ishiga aralashguncha, o‘zing qodir ishni qilaver.

NATIJALAR

- ✓ Fe‘l asosida shakllangan frazeologik birliklarning nutqdagi funksional ahamiyati ekspressivlik va obrazlilik, fe‘l asosidagi frazeologizmlar nutqqa: emotsionallik; ta‘sirchanlik;badiylik bag‘ishlaydi.

Masalan, “*Boyaqish ikki yirik o‘t o‘rtasida qoldi.*”-ilojsiz qoldi-iborasi o‘rniga yirik o‘t orasida qoldi iborasi ishlatilishi nutqni jonlantiradi. Uslubiy vazifasi ular: badiiy uslubda; publitsistik nutqda; og‘zaki so‘zlashuvda keng qo‘llanadi. Rasmiy-ilmiy uslubda esa cheklangan holda ishlatiladi. Kommunikativ samaradorlik fe‘l asosidagi frazeologik birliklar: fikrni ixcham ifodalashga yordam beradi; tinglovchi yoki o‘quvchiga kuchli ta‘sir o‘tkazadi; milliy-madaniy tafakkurni aks ettiradi. Fe‘l komponentli frazeologizmlarning paydo bo‘lish omillari, ko‘chma ma‘no hosil qilishdagi o‘rni va leksik-grammatik xususiyatlaridir. Til taraqqiyoti jarayonida inson tafakkuri, hayot tajribasi va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklar shakllanib boradi. Ular orasida fe‘l komponentli frazeologizmlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, harakat, holat, jarayon va ruhiy kechinmalarni obrazli ifodalash imkonini beradi. Bunday frazeologik birliklar tilda nafaqat leksik boylik sifatida, balki semantik va grammatik jihatdan ham muhim til hodisasi hisoblanadi. Fe‘l komponentli frazeologizmlarning shakllanishi bir qator til ichki va tashqi omillar bilan bog‘liq.

- ✓ Ijtimoiy-tarixiy omillar-

Jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlar va tarixiy voqeliklar frazeologizmlarning paydo bo‘lishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Mehnat faoliyati, urf-odatlar, kasb-hunar bilan bog‘liq harakatlar asosida ko‘plab fe‘l komponentli frazeologizmlar yuzaga kelgan. Masalan: “*Keyin shirin joningni Jabborga qo‘shqo‘llab beraver...*”- jonini Jabborga bermoq- o‘z jonini ayamagan holda kurashmoq.⁸ “Men, Nikita, anavi olmon yigiti... hamma-hammamiz kimningdir nog‘orasiga o‘ynayotgandekmiz, aya!...” – nog‘orasiga o‘ynamoq- boshqalarning aldashiga,hiyla ishlatishiga o‘rgatilmoq. Bu

⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

kabi iboralar xalqning kundalik hayotidagi harakatlar bilan uzviy bog‘liq. Psixologik va kognitiv omillar insonning ruhiy holati, hissiyotlari va ichki kechinmalarini ifodalash ehtiyoji frazeologik birliklarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, fe‘l komponentli frazeologizmlar orqali ruhiy holatlar obrazli tarzda ifodalanadi.

Masalan: “*O‘shaning ming yillik alami hali ham Erboyning yuragida tosh kabi cho‘kib yotgan ekan.*”⁹ - tosh kabi cho‘kkan- juda tinch, jimjit, xotirjam holatda bo‘lgan.

“*Eslab yuragi ezildi.*” - yuragi ezilmoq- ichki og‘riq, qayg‘u xafagarchilikni his qilmoq.¹⁰

MUHOKAMA. Tilning ichki rivojlanish omillari tilning iqtisodiylik tamoyili, ya‘ni fikrni qisqa va ta‘sirchan ifodalashga intilish ham fe‘l komponentli frazeologizmlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bir necha so‘z bilan ifodalanadigan mazmun bitta barqaror birlik orqali yetkaziladi. Fe‘l komponentli frazeologizmlarning ko‘chma ma‘no hosil qilishdagi o‘rnida frazeologizmlarning asosiy belgilaridan biri — ko‘chma ma‘noga egaligidir. Fe‘l komponenti bu jarayonda yetakchi rol o‘ynaydi.

✓ Metaforik ko‘chish:

Fe‘l komponentli frazeologizmlarda ko‘chma ma‘no asosan metafora asosida yuzaga keladi. Aniq harakat bildiruvchi fe‘l mavhum tushunchani ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: “*Onangni ko‘zim qiymani uchun shunday qilganman.*” - ko‘zi qiymanlik-xafa qilgim kelmadi. Bu yerda real harakat abstrakt holat bilan almashtirilgan.

✓ Metonimik ko‘chish:

Ba‘zi frazeologizmlarda harakat va natija o‘rtasidagi yaqinlik asosida ko‘chma ma‘no yuzaga keladi. Masalan: “*Qisqasi, Oychechak opaning bir oy davomida olgan tadbirlari ish berib, butun oila payshanba kuni poyezdga o‘tirib yo‘lga chiqdigu boshkentning Chilonzoriga tanda qo‘ygan «isonafas» deb dong‘i ketgan azayimxonning mahallasiga jumaning xayrli erta tongida yetib keldi.*” - dong‘i ketgan-ma‘lum mashhur bo‘lmoq.

Umumlashtiruvchi semantika fe‘l komponentli frazeologizmlarda ma‘no alohida so‘zlarning yig‘indisi emas, balki yaxlit semantik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ularni so‘zma-so‘z tarjima qilish yoki tahlil qilish mumkin emas. Bu yerda real harakat abstrakt holat bilan almashtirilgan.¹¹ Fe‘l komponentli frazeologizmlarning leksik xususiyatlari barqarorlik fe‘l komponentli frazeologizmlar tarkibiy jihatdan barqaror bo‘lib, ularning komponentlarini almashtirish mumkin emas yoki ma‘noni buzadi. Masalan: *ko‘z yumdi* iborasini ko‘z yopdi shaklida ishlatish frazeologik

⁹ Улуғбек Ҳамдам. Ота. – Тошкент: “ Ёшлар матбуоти”, 2022, 208-б.

¹⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

¹¹ Рашидова У. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (*кўз, қўл ва юрак* компонентли иборалар мисолида): филол.фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) диссер. – Самарқанд, 2018. – 52 б.

ma'noni yo'qotadi. Leksik cheklanganlikda ushbu frazeologizmlarda ishlatiladigan so'zlar o'zaro mustahkam bog'langan bo'lib, sinonimlar bilan erkin almashmaydi. Ko'p ma'nolilikdan holilik ko'pchilik fe'l komponentli frazeologizmlar nutqda bitta aniq ko'chma ma'noda qo'llanadi va kontekstga bog'liq holda kengaymaydi. Fe'l komponentli frazeologizmlarning grammatik xususiyatlari fe'l komponentli frazeologizmlar: zamon (o'tgan, hozirgi, kelasi), shaxs-son, nisbat shakllarida o'zgaradi. Masalan: *dong chiqarmoq, ko'ngli cho'kmoqda*. Fe'l komponentli frazeologik birliklarning badiiy nutqda qo'llanishi badiiy obraz yaratishdagi o'rnida badiiy asarlarda yozuvchi yoki shoir voqelikni jonli va ta'sirchan tasvirlash uchun fe'l komponentli frazeologik birliklardan keng foydalanadi.¹² Ushbu birliklar personajning ruhiy holati, ichki kechinmalari va xarakterini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Masalan: cho'chib tushdi- birdaniga hayron qoldi, bexosdan qo'rqdi.

Yuragi hapqirib ketdi — qahramonning qo'rquv yoki hayajon holati obrazli tarzda ifodalanadi. Ko'ngli tog'dek ko'tarildi — quvonch va ruhiy yuksalish tasvirlanadi.

Oddiy “xursand bo'ldi” ifodasiga nisbatan bu frazeologizmlar badiiy kuch va tasviriylikni oshiradi.

Ruhiy holat va kechinmalarni ifodalash fe'l komponentli frazeologizmlar inson psixologiyasini tasvirlashda ayniqsa samaralidir. Ular yordamida muallif ichki kechinmalarni bevosita tushuntirmay, obraz orqali ko'rsatadi. Masalan: *Ko'ngli cho'kdi* — tushkunlik; *Yuragi siqildi* — bezovtalik; *Boshlari osmonga yetdi* — cheksiz quvonch. Bu birliklar badiiy matnda hissiy ta'sir kuchini oshirib, o'quvchini voqeaga yaqinlashtiradi.¹³

✓ Fe'l komponentli frazeologik birliklarning og'zaki nutqda qo'llanishi og'zaki nutqning jonliligi va tabiiyligi, og'zaki so'zlashuv nutqi o'zining soddaligi va tabiiyligi bilan ajralib turadi. Fe'l komponentli frazeologizmlar og'zaki nutqda fikrni tez, lo'nda va tushunarli ifodalash imkonini beradi. Masalan: “*Shu barobari «ma'bud» qo'lidagi arqonni Oychechak opaning boshida bir aylantirib, xuddi qirchang'i otga qamchi tortgandek, ayolning sirtiga qarab qattiq tushirdi.*”¹⁴ - qirchang'i otga qamchi tushurganday- ayamay urish, Gapni cho'zma — ortiqcha gapirma; Qo'l siltab ketdi — beparvo munosabat bildirdi; Tilini tiy — ehtiyot bo'lib gapir.¹⁵

XULOSA. Bu iboralar kundalik muloqotda keng qo'llanib, nutqqa hayotiylik bag'ishlaydi. Emotsional baholash vositasi sifatida Og'zaki nutqda fe'l komponentli frazeologik birliklar ko'pincha so'zlovchining munosabati va bahosini ifodalaydi. Masalan: Joniga tegdi — haddan ortiq toliqtirdi; Qulog'iga quyib qo'ydi — yaxshilab tushuntirdi; Ko'z yumdi — e'tibor bermadi yoki kechirdi. Bu kabi birliklar nutqda

¹² Раҳмонов Н. Бадий нутқ ва фразеология. – Тошкент, 2015.

¹³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

¹⁴ Улуғбек Ҳамдам. Ота. – Тошкент: “Ёшлар матбуоти”, 2022, 208-б.

¹⁵ Маҳмудов Н. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006.

emotsional fonni kuchaytiradi. Fe'l komponentli frazeologik birliklarning ekspressivlikni ta'minlashdagi roli nutqning hissiy-ta'sirchanlik darajasini bildiradi. Fe'l komponentli frazeologizmlar bu xususiyatni kuchaytiruvchi asosiy vositalardan biridir. Masalan, quyidagi taqqoslashga e'tibor beraylik: Oddiy ifoda: U juda qo'rqdi. Frazeologik ifoda: Uning yuragi orqaga tortdi. Ikkinchi variantda qo'rquv darajasi yanada kuchli va ta'sirchan ifodalanadi. Shuningdek: Jonini fido qildi — fidoyilikning eng yuqori darajasi; Ko'zini ochib-yumguncha — tezlik va shiddatni ifodalaydi. Fe'l asosidagi frazeologik birliklar o'zbek tilining boy va faol qatlamini tashkil etadi. Ular nutqni obrazli, ta'sirchan va emotsional qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu birliklarni o'rganish tilshunoslik nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ta'lim jarayonida keng foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алефиренко Н.Ф. Фразеология и когнитивистика в аспекте лингвистического постмодернизма. Монография. – Белгород, 2008. 152 с.
2. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2002.
3. Кунин А. В. Фразеология современного английского языка. – М.: Международные отношения, 1996. 381 с.
4. Мирзаев И. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2010.
5. Маҳмудов Н. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. – Тошкент: Университет, 1992.
7. Рашидова У. Ўзбек тилидаги соматик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (*кўз, қўл* ва *юрак* компонентли иборалар мисолида): филол.фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) диссер. – Самарқанд, 2018. – 52 б.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
9. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – Б 129.
10. Улуғбек Ҳамдам. Ота. – Тошкент: “Ёшлар матбуоти”, 2022, 208-б.
11. Черданцева Т. З. Язык и его образы. Очерки по итальянской фразеологии. – М.: Изд-во ЛКИ, 2007. 168